

**Aleksandr Makedonskiyning hayoti va O'rta Osiyoga yurishlari
davrida unga qarshi qilingan jang harakatlari**

Bobonazarov Azizbek Muxtor o'g'li

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi I-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiy hayoti va O'rta Osiyoga yurishlari davrida unga qarshi qilingan jang harakatlariga bag'ishlanadi. O'rta Osiyoga qarshi olib borilgan janglarda erishilgan yutiqlar, qilingan g'alaba va yo'qotishlar haqida bayon qilinadi.

Аннотация: Данная статья посвящена жизни Александра Македонского и сражениям с ним во время его походов в Среднюю Азию. Описаны достижения, победы и потери в боях против Средней Азии.

Abstract: This article is dedicated to the life of Alexander the Great and the battles against him during his campaigns to Central Asia. It describes the achievements, victories and losses in the battles against Central Asia.

Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 356 - yilda dunyoga kelgan .Otasi Makedoniya podshosi Filipp II va uning rafiqasi Olimpiadaning o'g'lidir.Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 336 – yildataxtga keladiva oradan ikki yil o'tgandan keyin yani miloddan avvalgi 334- yilda SHarqqa hujum qiladi.SHarqqa hujumi natijasida Kichik Osiyo ,Suriya,Misr ,Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi.Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olish uchun 3 yil bosib olish uchun uringan Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoga yurishlari davomida uncha katta bo'lmagan hududlarni yani Marg'iyona, Baqtriya ,So'g'diyona , hozirgi Bekobod va Xo'jand orasida Sirdaryo bo'ylarini bo'ysundirishga muaffaq bo'ladi. Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon qo'shini bilan Doro Kodoman rahbarligidagi ahomoniylar qo'shini o'rtasidagi hal qiluvchi jang hozirgi Arbil (Iroq www.tadqiqotlar.uz

) yaqinidagi Gavgamela (hozirgi Tall – Gomel) qishlog'I yaqinida sodir bo'lgan jang miloddan avvalgi 331-yil 1-oktabrda bo'lib o'tgan. Doro qo'shinining tarkibida Forslar va yollanma yunon askarlaridan tashqari Baqtriya satrapi Bess qo'mondonligi ostida baqtriyaliklar, so'g'dlar , hindlar bo'lgan. Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 329-328 yillarda So'g'diyonaga yurish qiladi. So'g'diyonada Makedon bosqinchilariga qarshi qilingan jang harakatlariga Spitamen boshchilik qiladi. Spitamen miloddan avvalgi 370-358 yillarda yashagan. Yozuvchi V.V.Yanning yozishicha Spitamenning onasi Sug'd, otasi Sak qabilasiga mansub aslzoda xonadondan bo'lgan. Spitamen yoshligida abjir, chaqqon yigit bo'lib o'sgan. Otda chopish , kamon otish, qilichbozlikda unga hech kim tenglasha olmagan. Spitamen dastlab Doro III ning, so'ngra Bessning lashkarboshilaridan, yaqin safdoshlaridan bo'lgan. Bess o'limidan so'ng, yunonmakedon istilochilariga qarshi 3 yil davomida mardonavor kurash olib boradi. Miloddan avvalgi 328-yilning bahorida So'g'doyonadagi tinch aholini qilichdan o'tkazadi. Hal qiluvchi jang miloddan avvalgi 328-yilning kuzida bo'lib o'tadi. Spitamen yengiladi. Aleksandr Makedonskiy va saklar o'rtasida jang Tanais daryosi bo'yida bo'lib o'tadi. Tanais (hozirgi Sirdaryoni yunoncha nomlaridan biri). Aleksandr daryo bo'yida mustahkam o'rnashib oladi va jang harakatlairini davom ettiradi. Katta davlatni barpo qilgan Aleksandr o'zining shaxsiy hayotiga ham kata e'tibor qaratgan. Aleksandrni bolaligida qizlar qiziqtirmagan. Hayotning bu tomoni uning ota-onasini tashvishga solgan. Aleksandrning bu hislati ko'pchilikni lol qoldirgan. Miloddan avvalgi 323-yilda Arabiston yarimoroliga hujumi haqida gapira boshlagan. Bobilda janubga yurish qilish rejalarini tuzishni boshlagan. Ammo o'sha yilning 12- iyunida og'ir hastalikdan vafot etadi. Aleksandr favqulodda qobilyatli hukmdor bo'lgan. Uning qo'l ostidagi ayrimlar xuddi xudoga sig'ingan kabi uning oldida tiz cho'kkan. Ayrim manbalarda u juda yosh 33 yoshga to'lmay vafot etgan bo'lsa-da, ko'plab ishlarni bajarishga ulgurgan. Uning buyukligi harbiy karerasiga bog'liq bo'lgan.

Xulosalar: Aleksandrning yosh bo'lishiga qaramasdan otasining davrida yaratilgan kuchli davlayni boshqara oldi va bu davlatning yashashi uchun islohot vayurishlar amalga oshirdi. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyo yurishlari davrida

www.tadqiqotlar.uz *3-to'plam 2-son yanvar 2024*

o'zbek xalqi bu kurashlarga qarshi mardanavor kurashdilar va o'zlarining bir xalq ekanini ko'rsatib berdi. Aleksandrning bu darajaga erishishida otasining davrida yaratilgan temir intizom tufayli shunday bo'ldi. Yurishlari davridagi puxta o'ylangan reja va kuchli strategiya qo'shni hududlarni bosib olish uchun imkon yaratgan. Aleksandr Makedonskiyning vafoti to'g'risida ko'plab taxminlar mavjud, lekin bugungi kunda ham ushbu mavzu bo'yicha ishlar davom qilmoqda. Nafaqat Yevropa olimlari balki O'rta Osiyo olimlari tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Rajabov R.R. Qadimgi dunyo tarixi. (Sharq,Yunoniston, Rim).T.,<<Fan va texnologiya>>,2009 , 440 bet.
- 2.A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy.Qadimgi dunyo tarixi (6-sinf darsligi).Toshkent:<<Yangiyo'l poligraf servis>>,2017. -192 bet
- 3.A.Kabirov- "Qadimgi Sharq Tarixi". <<Tafakkur>> nashiryoti.Toshkent .2016 .276-280 betlar